

“TBC bilan orzudagi xonadon” Dasturini o‘tkazish qoidalari

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquq va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “TBC bilan orzudagi xonadon” dasturining qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur qoidalari lotereya emas yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan Dastur ishtirokchilari tomonidan Dasturda ishtirok etishda mol-mulk bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni o‘z zimmlariga oladigan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq chaqirib olinmaydigan ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2022 yil 5 sentabr; Dasturning tugash sanasi: 2022 yil 20 noyabr, shu jumladan. Dastur amal qilish muddati: Boshlanish sanasidan boshlab Tugash sanasigacha bo‘lgan muddat davomida, shu jumladan.

1.5. Dastur o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6 Dasturning amal qilish muddati davomida yangi kreditni (onlayn mikroqarz yoki avtokreditni) muvaffaqiyatli rasmiylashtirib olgan yoki “Qo‘shimcha kredit” xizmatidan foydalangan holda joriy kredit summasini oshirgan hamda quyidagi shartlarga javob bergan holda Bankning istalgan identifikatsiyalangan mijozi Dastur Ishtirokchisi bo‘lishi mumkin:

1.6.1. Yangi kredit summasi eng kamida 10 000 000 (o‘n million) so‘mga teng bo‘lishi kerak;

1.6.2. Joriy kredit va qo‘shilgan kredit summasi jami eng kamida 10 000 000 (o‘n million) so‘mni tashkil etishi kerak. Bunda qo‘shilgan kredit summasi 5 000 000 (besh million) so‘mdan kam bo‘lmasligi kerak.

1.6.3 Kreditlar 2022 yil 30 dekabrgacha (shu jumladan) faol holatda bo‘lishi kerak.

1.6.4. Dastur amal qilish muddati davomida rasmiylashtirilgan kreditlar bo‘yicha muddati o‘tgan to‘lovlar mavjud bo‘lmasligi kerak.

1.6.5. Kredit bo‘yicha qarzdorlik faqat to‘lovlar jadvaliga muvofiq so‘ndirilishi kerak.

1.7. Bank xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish, shu jumladan onlayn mikroqarz va avtokredit olish tartibi va shartlari Bankning Bosh Shartlari (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb yuritiladi) va tanishib chiqish uchun Bankning rasmiy veb-saytida va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali joylashtirilgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.8. Dastur amal qilish muddati davomida o‘n million so‘mdan ortiq miqdorda onlayn mikroqarz va/yoki avtokredit olish uchun ariza topshirgan Bank mijozlari ushbu Dastur qoida va shartlarini avtomat ravishda qabul qilgan bo‘ladi va ularga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning – “TBC bilan orzudagi xonadon” dasturi
Bankning Mijozlari	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Bank xodimlari va vakillari, ularning oila a‘zolari, shuningdek, uning affilangan shaxslaridan tashqari, Bank tomonidan muvaffaqiyatli verifikatsiyadan o‘tgan Bank mijozlari.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo‘lgan TBC UZ mobil ilovasi.
Mikroqarz	Bank mahsuloti - “TBC Bank” ATBning Onlayn mikroqarz shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan taqdim etiladigan onlayn mikroqarz.
Avtokredit	Bank mahsuloti – “TBC Bank” ATBning Avtokreditlash shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan avtotransport vositasiga berilgan kredit.
Sovrin	Toshkent shahrida joylashgan xonadon*

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

- 3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.
- 3.2. Dastur doirasida Bank tomonidan 1 (bitta) xonadon o‘ynaladi.
- 3.3. Bank rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI.

- 4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozlari ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.
- 4.2. Ishtirokchining 10 000 000 (o‘n million) so‘m miqdoridagi har bir jami joriy qarzdorligiga Mijozga ID raqami (Chipta) beriladi. Bitta Ishtirokchi olishi mumkin bo‘lgan maksimal chiptalar soni - 5 (besh) ta.
- 4.3. Chipta Ishtirokchiga Sovrining da‘vogarlar ro‘yxatida bo‘lish huquqini beradi.
- 4.4. Mikroqarz va Avtokredit berish tartibi Bankning “Onlayn mikroqarz” va “Avtokredit” mahsuloti shartlari bilan belgilanadi va Bankning tegishli shartnomalari bilan tartibga solinadi.
- 4.5. Sovrin Dastur yakunida jonli e‘firda Dasturning barcha Ishtirokchilari orasidan tasodifiy tanlash yo‘li bilan o‘ynaladi.
- 4.6. Bank har bir g‘olib Ishtirokchini Sovrin yutganligi to‘g‘risida SMS va/yoki mobil ilovadagi Push-xabarnomalar orqali, shuningdek, Bankning boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qiladi. Bank sovrinlar o‘yini natijalari e‘lon qilingan kundan boshlab uch oy ichida Dastur g‘oliblariga Sovrinni topshirishga haqli.
- 4.7. Sovrinni olish uchun G‘olib quyidagilarni amalga oshirishi kerak:
 - 4.7.1. shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlashga, foto va video suratga olishga rozilik berish;
 - 4.7.2. Bank tomonidan belgilangan shartlarga ko‘ra uning ishtirokida foto va video suratga olishda ishtirok etish;
 - 4.7.3. Sovrinni rasmiylashtirish Shartlari bilan tanishib chiqish va o‘z roziligini berish.

4.8. Agar G'olib Aksiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) bank kuni ichida sovrinni olishdan bosh tortsa yoki uni olish niyatini bildirmasa, sovrin talab qilinmagan hisoblanadi va G'olibning sovrinni olish uchun huquqi bekor qilinadi.

* Bank o'ynalayotgan sovrinlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot va shartlarni e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Sovrinni olishdan bosh tortgan yoki belgilangan muddatda sovrinni olish niyatini bildirmagan o'yin G'olibi ushbu muddat o'tganidan keyin talab qilinmagan yutug'ini Bankdan talab qilishga haqli emas. G'olibning Bank tomonidan belgilangan shartlarda o'z ishtiroki bilan foto va/yoki video suratga olishda ishtirok etishdan bosh tortishi Sovrinni olishdan bosh tortishga tenglashtiriladi.

4.9. G'olib Sovrinni olishdan bosh tortgan yoki Sovrin talab qilinmagan taqdirda, Bank ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda talab qilinmagan sovrinni qayta o'ynashga va yangi g'olibni aniqlashga haqli.

4.10. Sovrinni rasmiylashtirish shartlari, shuningdek, Sovrinning boshqa xususiyatlari Dasturning amal qilish muddati tugagunga qadar Bank tomonidan alohida hujjat shaklida Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to'g'risida ma'lumot olish;

- mazkur Qoidalarning 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomiga ega bo'lish.

5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishib chiqishi shart. Bank mijozi tomonidan Dasturda ishtirok etish va/yoki 10 000 000 (o'n million) so'mdan ortiq miqdorda kredit olish niyatining aniq ifodalanishi Bank mijozining avtomat ravishda ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqqanini va unga to'liq roziligini bildiradi.

5.3. Ishtirokchi ushbu qoidalarga muvofiq o'ynalgan Sovrindan faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanishi kerak.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o'tkazishi kerak, shuningdek, mazkur Qoidalarga ko'ra Sovrinni o'ynash bo'yicha majburiyatlarni bajarishi shart.

6.2. Ushbu Dastur 1.4-bandga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini identifikatsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni o'tkazish uchun so'rovnomalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

6.4. Bank Dastur haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Internet saytida <https://tbcbank.uz/> hamda Bank ofislarida joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshiruvini o'tkazganidan so'ng, Mijoz sovringa ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank asoslarga tayanib Bank mijozi noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotgan deb hisoblasa, Bank Mijozga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Shu bilan birga, Bank quyidagi harakatlarni amalga oshirishi mumkin: (a) istalgan Chiptalarni bekor qilishi; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki Sovrinni talab qilishini taqiqlashi; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklashi; va/yoki (d) har bir holatda, agar u ongli ravishda Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy yo'l bilan foydalangan deb hisoblasa yoki har qanday holatda suiiste'mol qilgan

holatlarda Bank uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

- i. bir nechta hisob yaratish;
- ii. ro'yxatdan o'tish vaqtida yolg'on ma'lumotlar taqdim etish;
- iii. kodlarni ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki istalgan ommaviy tarqatish shakli orqali ommaga ochiq taqdim etish;
- iv. hisobning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga kirishni ta'minlash.

6.6. Agar Bankning Dastur natijalarini e'lon qilganidan keyin bir hafta ichida Dastur g'olibi bilan bog'lanish imkoniyati bo'lmasa, Bank ma'lum bir g'olib ishtirokidagi o'yin natijasini bekor qilishga va Dasturning boshqa g'oliblar o'rtasida Sovrinni yana o'ynashga haqli.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Ishtirokchiga yutuq yutilganligi haqida xabar berilgan vaqtdan boshlab Bankning Sovrinni o'ynash bo'yicha majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.

7.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.

8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida muvofiq hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Qoidalar 05.09.2022 yildan kuchga kiradi va 20.11.2022 yilgacha amal qiladi.

9.2. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-sayti - www.tbcbank.uz da joylashtirilgan.

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytdagi (yuqoridagi havola orqali) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilib borishlari kerak.

9.4. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasining "Yordam 24/7" bo'limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.